

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**  
**O‘ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOT NATIJALARINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA MAVJUD MUAMMOLAR**

**Ilmiddinov Lutfullo Nizomjon o‘g‘li**  
Namangan davlat universiteti  
Yuridik fakulteti 1-bosqich talabasi  
Ilmiy rahbar: y.f.d.(PhD) Atamirzayev Ibrohim Xakimovich

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18980170>

**Annotatsiya.** Mazkur ma’ruzada O‘zbekiston Respublikasida ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishning huquqiy asoslari, institutsional mexanizmlari va tashkiliy-iqtisodiy vositalari keng qamrovda tahlil qilinadi. Ilm-fan va innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida va Innovatsion faoliyat to‘g‘risida asosida ilmiy natijalarni tijoratlashtirish, intellektual mulkni himoya qilish hamda texnologiyalar transferi jarayonlari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Ilmiy tadqiqot, innovatsion rivojlanish, tijoratlashtirish, intellektual mulk, patent, texnologiyalar transferi, startap loyihalar, grant moliyalashtirish.

**Аннотация.** В данной лекции всесторонне анализируются правовые основы, институциональные механизмы и организационно-экономические инструменты внедрения результатов научных исследований в практику в Республике Узбекистан. Рассматриваются нормативно-правовые акты, регулирующие сферу науки и инновационной деятельности, в частности Конституция Республики Узбекистан, Закон «О науке и научной деятельности» и Закон «Об инновационной деятельности». На их основе раскрываются процессы коммерциализации научных результатов, защиты интеллектуальной собственности и трансфера технологий.

**Ключевые слова:** Научное исследование, инновационное развитие, коммерциализация, интеллектуальная собственность, патент, трансфер технологий, стартап-проекты, грантовое финансирование.

**Abstract.** This lecture comprehensively analyzes the legal foundations, institutional mechanisms, and organizational and economic instruments for implementing scientific research results into practice in the Republic of Uzbekistan. It examines the regulatory legal acts governing science and innovation activities, in particular the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Law on Science and Scientific Activity, and the Law on Innovative Activity. Based on these legal acts, the processes of commercialization of scientific results, protection of intellectual property, and technology transfer are explained.

**Key words:** Scientific research, innovative development, commercialization, intellectual property, patent, technology transfer, startup projects, grant funding.

#### **Kirish**

O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanni rivojlantirish va ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Zamonaviy sharoitda iqtisodiy taraqqiyot innovatsion rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish - bu ilmiy izlanishlar jarayonida olingan yangi bilim, texnologiya, ishlanma yoki mahsulotni ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sohasi yoki ijtimoiy boshqaruv tizimiga tatbiq etish jarayonidir. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida davlatning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan ilmiy salohiyat va innovatsion faoliyat samaradorligiga bog‘liq.

Ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borish;
- tajriba-konstruktorlik ishlari (TKI);
- sinovdan o‘tkazish;
- patentlashtirish va huquqiy himoya qilish;
- tijoratlashtirish va bozorga chiqarish.

Mazkur jarayon murakkab institutsional mexanizm bo‘lib, unda davlat organlari, ilmiy tashkilotlar, oliy ta’lim muassasalari, xususi sektor, investorlar va moliya institutlari ishtirok etadi.

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishning konstitutsiyaviy asosi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarida mustahkamlangan bo‘lib, unda ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi belgilangan. Konstitutsiyaviy prinsiplar asosida sohaga oid maxsus qonun hujjatlari qabul qilingan.

Mazkur yo‘nalishda asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biri - Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risidagi Qonundir. Ushbu qonunda ilmiy faoliyat subyektlari, ularning huquq va majburiyatlari, ilmiy natijalarni tijoratlashtirish mexanizmlari, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shakllari belgilab berilgan. Qonunga muvofiq, ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish innovatsion faoliyat orqali amalga oshiriladi va bu jarayon grantlar, davlat buyurtmalari hamda xo‘jalik shartnomalari asosida moliyalashtiriladi.

Shuningdek, innovatsion rivojlanish sohasidagi munosabatlar Innovatsion faoliyat to‘g‘risidagi Qonun bilan tartibga solinadi. Mazkur qonun innovatsion infratuzilmani yaratish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, texnologiyalar transferi hamda venchur moliyalashtirish mexanizmlarini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. Qonun innovatsion faoliyat subyektlariga soliq va bojxona imtiyozlari berish imkoniyatini ham nazarda tutadi.

Ilm-fan va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashning asosiy prinsiplari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan bo‘lib, unda davlat ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashi mustahkamlangan. Ushbu norma ilmiy faoliyatni erkin amalga oshirish, ijod erkinligi va ilmiy natijalardan foydalanish huquqini kafolatlaydi.

Ilmiy faoliyat sohasidagi asosiy maxsus normativ hujjat - Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risidadir. Mazkur qonun:

- ilmiy faoliyat subyektlarini (ilmiy tashkilotlar, OTMlar, ilmiy xodimlar) belgilaydi;
- ilmiy grantlar va davlat buyurtmasi asosida moliyalashtirish tartibini ko‘rsatadi;
- ilmiy natijalarni tijoratlashtirish huquqiy mexanizmlarini belgilaydi;
- ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish tartibini tartibga soladi.

Shuningdek, Innovatsion faoliyat to‘g‘risida innovatsion infratuzilma, startap ekotizimi, texnologiyalar transferi, innovatsion markazlar va texnoparklar faoliyatini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. Ushbu qonun innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va tashkiliy shakllarini ham belgilaydi.

Ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish jarayonida intellektual mulk huquqlarini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi munosabatlar Intellektual mulk agentligi tomonidan muvofiqlashtiriladi hamda patent, foydali model, sanoat namunasi va mualliflik huquqi obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish orqali himoya qilinadi. Intellektual mulkni ishonchli himoya qilish ilmiy ishlanmalarning tijorat jozibadorligini oshiradi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ilmiy ishlanmalarning muayyan qismi ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan yetarlicha uyg‘unlashmagan. Ba‘zan tadqiqotlar ilmiy jihatdan dolzarb bo‘lsada, real sektor talabi, bozor ko‘nyunkturasi yoki tijorat salohiyati yetarli darajada tahlil qilinmaydi. Natijada patent olingan ishlanma ham amaliyotga yetib bormay qolishi mumkin. Menimcha, ilmiy loyihalarni shakllantirish bosqichidayoq sanoat korxonalarini va xususiy sektor vakillari bilan hamkorlik mexanizmini kuchaytirish zarur. Shunda ilmiy natija boshidanoq amaliy yo‘nalishga ega bo‘ladi.

Yana bir muhim jihat-tijoratlashtirish madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganidir. Ilmiy xodim ko‘pincha o‘z ishining ilmiy qiymatini yaxshi anglaydi, lekin uning iqtisodiy qiymatini baholash, investor bilan muzokara olib borish yoki litsenziya shartnomasi tuzish borasida tajribaga ega emas. Shu nuqtai nazardan, oliy ta‘lim va ilmiy muassasalarda texnologiyalar transferi bo‘yicha professional tuzilmalarni rivojlantirish, marketing va innovatsion menejment yo‘nalishlarini kuchaytirish muhim deb hisoblayman.

Shuningdek, intellektual mulkni himoya qilish masalasiga ham boshqacha yondashuv zarur. Patent olish jarayoni ko‘pincha formal vazifa sifatida qabul qilinadi. Aslida esa patent-bu kelajakdagi iqtisodiy aktivdir. Agar u to‘g‘ri boshqarilsa, litsenziyalash yoki hamkorlik asosida barqaror daromad manbaiga aylanishi mumkin. Demak, intellektual mulkni boshqarish tizimini takomillashtirish ilmiy natijalarni real iqtisodiy resursga aylantirishning muhim shartidir.

Fikrimcha, innovatsion rivojlanishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan inson kapitaliga bog‘liq. Yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni xalqaro ilmiy hamkorlikka jalb etish, ilmiy muhitda sog‘lom raqobat va ochiqlikni ta‘minlash – uzoq muddatli natija beradigan omillardir. Innovatsiya faqat moliyaviy resurs bilan emas, balki erkin fikrlash va tashabbuskorlik muhiti bilan yuzaga keladi.

So‘nggi yillarda mamlakatda innovatsion ekotizimni shakllantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ilmiy loyihalarni

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

moliyalashtirish, yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy natijalarni tijoratlashtirishga ko‘maklashish mexanizmlari yo‘lga qo‘yildi. Ilmiy-texnologik parklar, biznes-inkubatorlar va startap akseleratorlari faoliyati kengaytirildi.

Shunga qaramay, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, ilm-fan va real sektor o‘rtasidagi integratsiya yetarli darajada rivojlanmagan. Ko‘plab ilmiy ishlanmalar ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirilmagan yoki bozor talabi chuqur o‘rganilmagan holda yaratiladi. Ikkinchidan, tijoratlashtirish mexanizmlarining amaliy samaradorligi past darajada qolmoqda. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda xususiy sektor ishtiroki cheklangan. Uchinchidan, intellektual mulkni baholash va litsenziyalash amaliyoti yetarlicha rivojlanmagan. Ko‘plab ilmiy natijalar patentlashtirilmaydi yoki patent olingan taqdirda ham ishlab chiqarishga joriy etilmaydi. To‘rtinchidan, ilmiy tashkilotlarda marketing va texnologiyalar transferi bo‘yicha mutaxassislar yetishmaydi. Bu esa ilmiy ishlanmalarni investorlarga taklif etish va tijoratlashtirish jarayonini murakkablashtiradi.

Bundan tashqari, normativ-huquqiy hujjatlarning ayrim normalari o‘zaro muvofiqlashtirilmaganligi ham amaliyotda qiyinchiliklar tug‘diradi. Grant mablag‘laridan foydalanish, ilmiy natijalarni xo‘jalik aylanmasiga kiritish va ulardan daromad olish mexanizmlarida byurokratik to‘siqlar mavjud.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

**Birinchidan:** ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasida klaster tizimini rivojlantirish;

**Ikkinchidan:** texnologiyalar transferi ofislarini har bir yirik oliy ta‘lim va ilmiy muassasada tashkil etish;

**Uchinchidan:** venchur fondlar faoliyatini kengaytirish;

**To‘rtinchidan:** ilmiy natijalarni tijoratlashtirishdan olingan daromadlarni taqsimlashning shaffof mexanizmini joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishning huquqiy asoslari shakllangan bo‘lsada, ularning samarali ishlashi institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, ilm-fan va biznes integratsiyasini kuchaytirish hamda innovatsion madaniyatni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Ilmiy natijalarni tijoratlashtirish milliy iqtisodiyotning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib qoladi.

Asosiy vazifa- ushbu tizimni real sektor ehtiyojlariga yaqinlashtirish, ilm-fan va biznes o‘rtasida ishonchli hamkorlikni shakllantirish hamda innovatsion faoliyatni iqtisodiyotning tabiiy tarkibiy qismiga aylantirishdan iborat. Ana shunda ilmiy natija nafaqat maqola yoki hisobotda, balki ishlab chiqarish quvvatlarida, yangi mahsulot va xizmatlarda o‘z ifodasini topadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-576-son Qonuni (2024-yilgi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).

2. Innovatsion faoliyat to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi O‘RQ-630-son Qonuni (2024-yilgi tahrir).

3. PF-158 – “Ilm-fan va innovatsiyalar sohasini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Ilmiy loyihalarni moliyalashtirish va tijoratlashtirish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar to‘plami. – Toshkent, 2024. – 112 bet.

5. Intellektual mulk markazi. Intellektual mulk obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom (2024-yilgi tahrir). – Toshkent, 2024.

6. Shavkat Mirziyoyev. Oliy Majlisga Murojaatnoma. – Toshkent, 20-dekabr 2023-yil. (Ilm-fan va innovatsiyalarni iqtisodiyot drayveriga aylantirish masalalari, 18–24-betlar).

1. S.N.Xoshimov. Talabalar o‘rtasida ilmiy faoliyatni rivojlantirishning amaldagi pedagogik mexanizmlaridagi kamchiliklarni aniqlash. Inter education&Glbal study Ilmiy nazariy va metodik jurnali. 2024-yil 6-son;

2. S.N.Xoshimov. New stages of studying the views and problems of students in doing scientific research. International Journal Of History And Political Sciences. 2024-yil 7-son.